



**“O‘ZKIMYOSANOAT”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
BUYRUQ**

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6247-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3953-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-maydagi “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4302-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4812-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5171-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi raqamli transformatsiya markazining elektron kooperatsiya portalida axborotni joylashtirish va xaridlarini amalga oshirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” 833-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 276-son qarori ijrolarini ta‘minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. “O‘zkimyosanoat” AJning 2025-yil 8-fevraldagi 0012-son buyrug‘ining 1-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.
2. “O‘zkimyosanoat” AJning xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va shakllantirish uchun eng yaxshi takliflarni tanlash, tenderni elektron o‘tkazish va

xaridlarga oid shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha xarid komissiyasi a‘zolari 1-
ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “O‘zkimyosanoat” AJ markaziy apparatida davlat xaridlari doirasida xarid
qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga G‘aznachilik operatsiyalari
va ichki xaridlar bo‘limi mas’ul etib belgilansin.

4. Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishning qonuniyligini
ta’minlash xarid komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu buyruqning ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi



O. Sh.Temirov

Rozilik

**Boshqaruv raisining moliya-
iqtisodiyot va transformatsiya
masalalari bo'yicha birinchi
o'rinbosari**



J. I. Mustafayev

**Boshqaruv raisining
investitsiya faoliyati bo'yicha
o'rinbosari**



A. D. Kurbanov

**Departament boshlig'i
o'rinbosari**



X. E. Salixov

Yuridik boshqarmasi boshlig'i



T. A. Ibadullayev

Bo'lim ichida rozilik

Departament boshlig'i



F. O. Namozov

Mas'ul

Bo'lim boshlig'i



O. A. Rasulov